

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANIDAN SAF TAYYORGARLIGI MASHG'ULOTINI O'TISH USLUBI

Xushvaqtoov Sharif Adilovich

Shahrisabz "Temurbeklar maktabi" Harbiy-akademik litseyi
chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta, o'rta maxsus va boshlang'ich professional ta'lim muassasalarida, Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litseylarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchilari tomonidan saf tayyorgarlik mashg'ulotlarini orgatish uchun qo'llaniladigan usul va uslublar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: naryad, nizom, harbiy, xizmat, buyruq, majburiyat, javobgarlik, xuquq, lavozim.

Saf tayyorgarligi harbiy xizmatchilarning safda turish, qurol va qurolsiz harakat qilish; bo'linma tarkibida saf tortishi, harbiycha salom-alikni bajarishi, harbiy xizmatchilarning safga tizilish oldidagi, safga turishdagi majburiyatlarini, ularni safga turish va yurishga o'rgatish talablarini, safona harakatlarini, qaddi qomadini to'g'ri tutishi, safdagi intizomini va tarbiyasi, intizomi va jamoaviy harakatlarni muvofiq-lashtirishda muhim o'rin tutadi. Bu fan orqali harbiy xizmatchilar safda to'g'ri turish, harakatlanish, buyruqlarni aniq va tez bajarish, jamoa bilan uyg'un ishlash ko'nikmalarini hosil qiladilar.

1. Mashg'ulotning maqsadi

Saf tayyorgarligi mashg'ulotlarining asosiy maqsadi — harbiy xizmatchilarda safda to'g'ri turish, harakatlanish va buyruqni bajarish malakasini shakllantirish hamda jamoaviy intizomni mustahkamlashdan iborat.

2. Mashg'ulotni o'tish tartibi

Saf tayyorgarligi mashg'ulotiniyuqori saviyada o'tishi uchun mashg'ulot o'tishga tayyorgarlik ko'rish muxim jixatlardan biri xisoblanadi.

Mashg'ulot o'tish uchun tayyorlanish uch qismga bo'linadi:

- Mashg'ulot rahbarini tayyorgarligi:
- O'quv moddiy bazalarini mashg'ulot o'tishga tayyorlash:
- O'quv nuqtalarini mashg'ulotga tayyorlash

Mashg'ulot rahbarini tayyorgarligi:

- mashg'ulotga qatnashuvchi o'quvchilar toifasiga asosan mashg'ulot turlarini aniqlash;

- mavzu asosida malumotlarni topish va o'rganish;

- o'quv savollari bo'yicha mashklar o'tish usullarini va o'quv nuqtalarini aniqlashtirish;

- mashg'ulotni aloxida elementlari asosida o'tish usullari bo'yicha o'rgatish qismlarini aniqlash;

- o'quv savollari bo'yicha mashg'ulot o'tish uchun uslubiy mashg'ulotlarga qatnashish, o'quv nuqtalarida aloxida mashg'ulot rahbarlari tayinlangan bo'lsa ular bilan uslubiy mashg'ulotlar o'tish;

- mashg'ulot o'tish rejasi va konspektlarni tayyorlash va tasdiqlatish.

O'quv moddiy bazalarini tayyorlash:

- mashg'ulot o'tish uchun kerakli o'quv qurollarini, umumharbiy nizomlarni, guruh jurnallarini, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni, baholash ruyxatlarini tayyorlash.

O'quv nuqtalarini tayyorlash:

- saf maydonchasini, o'quv nuqtalarini, o'z xarakatlarini ko'rishlari uchun kuzgularni tayyorlash kiradi.

Mashg'ulotda taqvim mavzular rejasi, dars rejasi, maruza matnlari va didaktik materiallar tayyorlanadi.

Saf tayyorgarligi mashg'uloti uch qismdan iborat bo'ladi.

Kirish qismi, asosiy qism va yakuniy qismdan iborat.

Mashg'ulotni kirish qismida o'quvchilarni safdagi holati, sonini, aft-angorini, qomat, kiyim, qurolari, mashg'ulotga tayyorliklarini (o'quv qurollari, darsliklari mavjudligini), ko'rgazmali qurollarni to'liqligini tekshirish, o'tilgan mavzular asosida qisqacha savol javoblar o'tkazish, yangi o'tiladigan mavzuni, maqsadini, o'quv savollarini, o'quv

nuqtalarini, mashg'ulot o'tish ketma-ketligini, mashg'ulot usul va uslublarini yetkazishdan iborat.

Mashg'ulotni kirish qismida umumiy vaqtning 10 foizi talab qilinadi.

Mashg'ulotni asosiy qismida o'quv savollariga asosan ketma-ketlik bilan mashqlari o'tkaziladi.

Saf tayyorgarligi mashg'ulotlarini tez va aniq o'rganishlari uchun aytib berish, ko'rsatib berish va mashq qildirish usullaridan keng foydalaniladi.

Saf usullarini o'zlashtirishda uslubiy ketma-ketlik katta ahamiyatga ega:

- tushuntirish va ko'rsatish (o'qituvchi tomonidan);
- o'rganish (o'rganuvchi tomonidan);
- takrorlash (o'rganuvchi tomonidan).

Rahbar saf usullari bilan tanishtirishda quyidagilarni bajaradi:

- nomi, qayerda va qanday maqsadda qo'llanishini tushuntiradi;
- beriladigan komandaning bajarilishini aytadi;
- beriladigan komandaning Nizom talablari bo'yicha qanday bajarilishi kerakligini ko'rsatadi, so'ngra harakatlarni sekinlashtirilgan holatda ko'rsatadi va usul elementlarini bo'lib, bajarilish tartibini tushuntiradi.

Usullar bilan tanishishga kam vaqt sarflanishi maqsadga muvofiqdir.

Usullarning murakkabligiga qarab, ularni qo'yidagi tartibda o'rganish tavsiya etiladi:

- usul murakkab bo'lmasa, to'liq;
- usul murakkab bo'lsa, elementlariga bo'lib;
- agar usulni o'zlashtirishi qiyin kechsa, tayyorlov mashqlari yordamida o'rganiladi.

Mashg'ulot rahbari usullarni tanishtirishda namunaviy tarzda to'liqligicha ko'rsatadi, so'ngra esa usullarini elementlarga bo'lib, ularni bajarilish tartibini tushuntiradi. Agar usul harakati qisqa bo'lsa, ularning elementlarini o'rgatishdan avval to'liq ko'rsatib, so'ngra qisqa tushuntirish ishlarini olib boradi.

¹ “O'ng-GA”, “chap-GA”, “ort-GA” komandalarini o'rgatish usullari.

¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi malaka oshirish instituti jangovar tayyorgarlik sikli “Ichki ishlar organlari safdor va serjantlar tarkibidan ofitserlik

Har bir xarakat mashqlari aloxida xisobda, «bajar bir, ikki, uch, to‘rt» xisob berish usullari bilan bajartiriladi.

Мисол учун; saf usullari va harakatlarini o‘rgatish vaqtida, ularni qismlarga bo‘lib, sanoq bilan, shuningdek, tayyorlov mashqlari yordamida o‘rgatiladi, masalan: **“O‘ngga” sanoq orqali “bajar – BIR, bajar – IKKI”, “chapga” sanoq ostida: “bajar – BIR, bajar – IKKI”.**

Har bir aloxida mashq noto‘g‘ri bajarilsa bekor qilish yoki ijrosini to‘xtatish uchun **“Qoldirilsin”** komandasi berilib oldingi holatga qaytariladi.

Shu tariqa aloxida yengil mashqlarni o‘rganib bo‘lgandan keyin umumiy yaxlit bir mashqlarga birlashtirilgan holda bajartiriladi.

Мисол учун **“O‘ng-ga”, “chap-ga”** buyruqlari berilib mashq usuli to‘liq bajariladi.

Joyda turib burilish usullari **“O‘ng-GA”, “Chap-GA”, “Ort-GA”** komandalari bo‘yicha bajariladi.

Ortga va chapga burilishlar chap poshna va o‘ng oyoq uchida turgan holda, chap qo‘l tomon, o‘ngga burilish esa o‘ng poshna va chap oyoq uchida turgan holda, o‘ng qo‘l tomon burilib, bajariladi.


Burilish ikkita usul bilan bajariladi:

Birinchi usul. Tananing tik holati saqlanib, tizzani bukmay burilgancha, tana vazni oldinda turgan oyoqqa o‘tkaziladi.

Ikkinchi usul. Ortda qolgan oyoq to‘g‘ri tortilib, oldingi oyoqqa taqaladi.

O‘rganilgan aloxida qismlari birlashtirilib yaxlit holda mashq qildirilgan holda birlashtirilib o‘rganiladi.

Mashg‘ulot davomida komandalarni berishda **ogoxlantiruvchi** va **bajaruluvchi** komandalarga aloxida etibor qaratish zarur.



bitta

lavozimlariga tayinlash uchun qayta tayyorlash o‘quv kurslarining jangovar tayyorgarlik moduli” bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua 2023 y.


Ogoxlantiruvchi komanda baland ovozda, tushunarli tarzda, cho‘zibroq, safdagilarga tushunarli qilib beriladi. Ushbu komandalar orqali safdagilar diqqatini oshiradi va qaysi tomonga burilishlarini tushunib olganlaridan keyin qad rostlagan holda **bajariluvchi** komandani kutadilar.

bajariluvchi komanda to‘xtalishdan so‘ng baland ovizda buyruq orqali aniq beriladi.

Shaxdam qadam bilan yurishni o‘rgatish uslubi.

Birinchi navbatda qo‘llar harakatini o‘rgatishdan boshlanadi va ushu harakatlar ikki xisobda bajariladi.

Birinchi xisobda **“qol bilan harakatlan bajar bir”** ushbu komandada o‘quvchi qaddini rostlagan holda o‘ng qo‘lini oldinga bukib bel kamaridan ber musht balandlikda balanga ko‘tarilgan xilda, tirsak qismi 90 gradus burchak xosil qilinishini taminlashi kerak. Ushbu buyruq asosida bir vaqtda chap qo‘li tirsak bukilmagan holda oxirigacha ortga yuboriladi. Barmoqlar yarim bukilgan holda siqilgan holda bolishi kerak.



Ikkinchi xisobda **“bajar ikki”** o‘rganuvchi qo‘llar holatini o‘zgartiradi.

Xar bir xisobda qolning holatini to‘xtatgan holda ushlab turishini talab qilib bir xilda va to‘g‘ri bajarilishini ta‘minlaydi.

Shu tariqa mashq takrorlanadi.

Oyoqlar harakatini o‘rgatish usullari.

² Harbiy xizmatchi qadamlab yurib yoki yugurib harakatlanadi.

² O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2025- yil 20- maydagi 21/29/10/11/02/16/07- sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar²ining Saf nizomi.

Qadamlab yurish harakati daqiqada 110-120 qadam tezlikda bajariladi. Bunda, har bir qadam uzunligi 70-80 santimetr bo'lishi lozim.

Yugurish harakati daqiqada 165-180 qadam tezlikda bajariladi. Bunda, har bir qadam uzunligi 85-90 santimetr bo'lishi lozim.

Qadamlab yurish harakati shaxdam qadam va oddiy qadam tashlab yurishga farq qiladi.



Shaxdam qadam tashlash harakati bo'linma tantanali yurib o'tayotganida, yurish davomida harbiycha salom berilayotganida, harbiy xizmatchi boshliq oldiga yaqinlashayotgan yoki undan nari ketayotganida, saf tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot jarayonida safdan chiqayotgan yoki safga qaytayotganda, shuningdek, tantanali va motamli harbiy taomillar davomida bajariladi.

Shaxdam qadam tashlash harakati **“Shaxdam qadam – BOS”** komandasi, oddiy qadam tashlab yurilayotganda **“Shaxdam BOS”** komandasi, oddiy qadam tashlab yurish harakati esa **“Qadam – BOS”** komandasi bo'yicha boshlanadi.

Dastlabki komanda berilganda tana biroz oldinga og'dirilib, uning asosiy vazni, muvozanat saqlagan holda, o'ng oyoqqa olib o'tiladi. Ijro komandasi berilganda harakat chap oyoqdan, to'liq qadam tashlab boshlanadi.

Shaxdam qadam tashlab yurganda, uchi oldinga uzatilgan oyoq 15-20 santimetrga ko'tarilib, yerga butun kafti bilan bosiladi.

Shaxdam qadam bilan yurishni o'rgatishda oyoqlarni ko'tarishda tizzalarni bukmasdan, yerdan 15-20 smga ko'tarish bir qismga o'rgatilsa, ko'tarish qismli mashqlar aloxida qismda o'rgatiladi.

Oquvchilarga joyida qadam tashlashni o'rgatish ham ikki xisobda bajariladi va ushbu holatda qol bilan o'rganilgan harakatlar qo'shiladi.

Joyda qadam bosish harakati **“Joyingda, qadam – BOS”** komandasi bilan bajariladi. Ushbu komanda orqali o'quvchi oyogini erdan 15-20 smga ko'taradi, oyoq uchi erga qaratilgan holda bo'lishiga etibor qaratiladi va butun oyoq tekist erga qo'yilishi kerak.

Mashq to'ri bajarilguncha bajartiriladi va harakatlar kuzatib xatoliklarga to'grilik kiritib boriladi.



Shaxdam qadam bilan yurishni o'rgatish usullari.

Shaxdam qadam bilan yurishni o'rgatish "to'rt xisobda qadam bos BIR, IKKI, UCH, TO'RT" deb komandalar beriladi.

"BIR" komandasida chap oyoq erdan ko'tarilib oldinga 70-80sm masofada, to'liq erga qo'yiladi va bir vaqtning o'zida tanani og'irligi oldingi chap oyoqqa tushirgan holda o'ng oyoqni erdan uzishga tayyor holda turadi.

"IKKI, UCH, TORT" xisoblarda o'ng oyoq erdan uzilib oxista tizzalarni bukmasdan to'g'ri tutgan holda chap oyoq yoniga olib keltiriladi. Ushbu mashq vaqtida qo'llar harakati ham bajariladi.

Navbatdagi "BIR, IKKI, UCH, TO'RT" komandalarida harakat o'ng oyoq bilan davom ettiriladi.

Shu tarzqa mashq to'liq bajarilguncha mashq qilinadi.

Etarlicha mashq qilingandan so'ng shu mashq ikki xisobda bajariladi.

Ikki xisobda mashqlarni ozlashtirgach daqiqasiga 50-60 qadam tezlikda harakatlantirgan holda shaxdam qadam bilan yurdirishni mashq qiladi va qadam tezligini daqiqasiga 110-120 qadamgacha etkazib mashq qildiradi.

Shaxdam qadam bilan yurish meyyori daqiqasiga 110-120 qadam xisoblanadi va qadam uzunligi 70-80 sm bo'lishi kerak.

Xulisa:



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi malaka oshirish instituti jangovar tayyorgarlik sikli "Ichki ishlar organlari safdor va serjantlar tarkibidan ofitserlik lavozimlariga tayinlash uchun qayta tayyorlasho'quv kurslarining jangovar tayyorgarlik moduli" bo'yicha o'quv-uslubiy majmua 2023 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat

xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining 2025- yil 20- maydagi 21/29/10/11/02/16/07- sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar³ining Saf nizomi.

3. Saf tayyorgarligi uslubiyoti. “Sharq” nashriyoti Toshkent 2005 y.